



AKTUAR MOLIIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 05 | pp. 92-98 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

DAVLAT MOLIIYASI VA AHOLI MOLIIYAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR



Xidirov Nodir G'iyosaliyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”

kafedrası professori

Olqarova Zarina Nosirovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholi moliyaviy savodxonligini oshirishda davlat moliyasining o'rni va ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Dastlab, mavzuga doir ilmiy adabiyotlar o'rganilib, moliyaviy savodxonlikning nazariy asoslari hamda davlat moliyasi orqali bu jarayonni samarali boshqarish usullari haqida nazariy qarashlar bayon etiladi. Shuningdek, maqolada O'zbekiston sharoitida aholi moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarga e'tibor qaratilib, so'rov va empirik ma'lumotlar tahlili keltirilgan. Natijalar bo'limida jadvallar va rasmlar asosida olingan ma'lumotlar ko'rsatilgan. Xulosa qismida esa mavjud muammolarni bartaraf etish va kelajakda aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, davlat moliyasi, soliq siyosati, byudjet, investitsiya, jamg'arma, ijtimoiy farovonlik, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the role and importance of public finance in increasing the financial literacy of the population. Initially, the scientific literature on the topic is studied, theoretical views on the theoretical foundations of financial literacy and methods of effective management of this process through public finance are presented. The article also focuses on the work being carried out to increase the financial literacy of the population in the conditions of Uzbekistan, and an analysis of survey and empirical data is presented. The results section presents the data obtained based on tables and figures. The conclusion section puts forward practical proposals that will help eliminate existing problems and increase the level of financial literacy of the population in the future.

Keywords: financial literacy, public finance, tax policy, budget, investment, savings, social welfare, economic stability.

Аннотация: В данной статье представлен подробный анализ роли и значения государственных финансов в повышении финансовой грамотности населения. В начале исследуется научная литература по данной теме, приводятся теоретические взгляды на основы финансовой грамотности и методы эффективного управления этим процессом посредством государственных финансов. Особое внимание уделяется мероприятиям, проводимым по повышению финансовой грамотности населения в условиях Узбекистана, а

также представлен анализ данных опросов и эмпирических исследований. В разделе «Результаты» представлены полученные данные в виде таблиц и графиков. В заключении предложены практические рекомендации, способствующие устранению существующих проблем и повышению уровня финансовой грамотности населения в будущем.

Ключевые слова: финансовая грамотность, государственные финансы, налоговая политика, бюджет, инвестиции, сбережения, социальное благосостояние, экономическая стабильность.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy munosabatlarda aholi moliyaviy savodxonligi darajasi nafaqat shaxsiy farovonlik, balki umuman jamiyat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida ham muhim o'rin tutadi [Karimov, 2021, 45]. Moliyaviy savodxonlik insonning shaxsiy budjetini rejalashtirish, jamg'arma shakllantirish, moliyaviy risklarni baholash, investitsion qarorlar qabul qilish va iqtisodiy manbalardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi [Tursunov, 2020, 21].

Ayni paytda raqamli texnologiyalar, globalizatsiya va iqtisodiyotning liberallasuvi jarayonlari sur'at bilan rivojlanar ekan, moliyaviy savodxonlik masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Davlat, o'z navbatida, qulay moliyaviy muhitni shakllantirishda asosiy o'rin tutadi, chunki bu jarayonda soliq siyosati, byudjet mablag'lari taqsimoti, turli imtiyoz va subsidiyalarni ajratish, davlat investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash kabi vositalar ishtirok etadi [Abdullayev, 2018, 56].

O'zbekiston sharoitida so'nggi yillarda aholi moliyaviy savodxonligini oshirish borasida turli ko'rinishdagi dasturlar, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar, ta'lim tizimida mavzuga oid modullarni joriy qilish bo'yicha harakatlar sezilarli bo'ldi [G'aniyev, 2021, 18]. Biroq bu ishlar hali ham keng ko'lamda amalga oshirish, ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan mukammal takomillashtirishga muhtoj. Davlat moliyasi resurslaridan oqilona foydalangan holda, aholini moliyaviy masalalarda xabardor qilish va xulq-atvor stereotiplarini ijobiy tomonga o'zgartirish mumkin.

Mazkur maqola aholi moliyaviy savodxonligini oshirishda davlat moliyasining o'рни qanday namoyon bo'lishini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolaning asosiy maqsadi – mavzu doirasida mavjud ilmiy adabiyotlarni o'rganish, tadqiqot metodlarini bayon etish, olingan natijalar va muhokamalarni keltirish hamda xulosa va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Aholi moliyaviy savodxonligi haqida ilk ilmiy tadqiqotlar XX asr o'rtalaridan boshlab kuzatila boshlagan. G'arbda, ayniqsa, AQSH va Yevropa davlatlarida aholi orasida mablag'ni tejash, pensiya jamg'armalarini to'g'ri boshqarish va soliq imtiyozlaridan oqilona foydalanish bo'yicha izlanishlar olib borilgan [Johnson, 2019, 112]. Keyingi bosqichlarda bu mavzu yanada kengayib, moliyaviy savodxonlik birgina shaxsiy farovonlik emas, balki butun jamiyatning iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishini belgilaydigan omil sifatida e'tirof etilgan [Williams, 2020, 201].

Davlat moliyasi sohasi bo'yicha adabiyotlarni o'rganishdan ma'lum bo'lishicha, aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishda quyidagilar muhim o'rin tutadi:

1) soliq siyosati – fuqarolarda soliq to'lash majburiyati bilan bog'liq ongini, soliq daromadlari qayerda va qanday maqsadlarda ishlatilishini tushunishga xizmat qiladi [Sadikov, 2019, 33];

2) byudjet mablag'lari ochiqqligi – jamoat mablag'larining shakllanishi va sarflanishi bo'yicha muntazam e'lon qilinadigan hisobotlar va ochiq ma'lumotlar platformalarining ahamiyati katta [Yusupov, 2019, 72];

3) davlat ko'magidagi moliyaviy dasturlar – imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, grantlar, investitsion loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash kabi choralar orqali aholini iqtisodiy faollikka jalb qilish [Nazarov, 2022, 87];

4) ta'lim tizimi – yosh avlodni erta bosqichlardan boshlab moliyaviy madaniyatga o'rgatish, shu jumladan maktab va OTMlarda maxsus fanlar joriy etish [Boltayev, 2021, 59];

5) ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar – moliyaviy madaniyatni oshirishga qaratilgan maxsus ko'rsatuvlar, radio eshittirishlar, internet kurslar, blogerlar orqali targ'ibot ishlarining jadallashtirish [G'aniyev, 2021, 20].

O'zbekistonda esa Markaziy bank, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi kabi bir qator muassasalar tomonidan aholi moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan loyihalar soni tobora ortib bormoqda. Ammo yetarli darajadagi ilmiy izlanishlar va keng ko'lamli tahlillarni amalga oshirish zarurati saqlanib qolmoqda [Raximov, 2019, 62].

Shuningdek, xalqaro tajribaga nazar tashlansa, rivojlangan davlatlarda aholi moliyaviy savodxonligi bo'yicha maxsus "Milliy strategiya" yoki "Davlat dasturi" ishlab chiqilgan bo'lib, unda maktab yoshidan boshlab aholining barcha qatlamlariga mo'ljallangan, moslashuvchan o'quv-uslubiy materiallar va treninglar mavjud [Akramov, 2016, 17]. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotda sog'lom raqobat, bank-moliya tizimidan keng foydalanish, shaffoflik va aholining davlat siyosatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tadqiqot ishini amalga oshirishda nazariy tahlil, empirik so'rov, statistik tahlil, sistemaviy yondashuv, taqqoslash kabi usullaridan foydalanildi

NATIJA VA MUHOKAMA

Moliyaviy savodxonlik iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikning asosi sifatida tobora keng e'tirof etilmoqda [Karimov, 2021, 46]. Zero, moliyaviy savodxonlikka ega bo'lgan fuqaro o'z byudjetini rejalashtiradi, ortiqcha xarajatlarni minimallashtiradi, kelajak uchun jamg'armalar yaratadi, investitsiya va kreditlardan oqilona foydalanadi. Davlat moliyasi esa ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli vositalarga ega.

Yuqorida aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishda aytib o'tilgan omillardan biri davlat soliq siyosatini aholi o'rtasida keng targ'ib etish zarur. Davlat aholi o'rtasida soliq to'lash madaniyatini shakllantirish, soliq imtiyozlaridan foydalanish hamda ijtimoiy adolatni ta'minlash bo'yicha muhim ko'nikmalarni rivojlantirishi mumkin. Soliq yukining mohiyati tushuntirilib, byudjet daromadlari soliq tushumlari asosida qanday

shakllanishi va mablag'lar qanday yo'naltirilishi haqida aniq ma'lumotlar berilishi aholining davlat moliyasiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi.

Davlat byudjetidagi mablag'larning ochiq va shaffof taqsimlanishi davlat hamda aholi o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. Fuqarolar byudjetning faqat davlatga tegishli emasligini, balki o'zlari to'layotgan soliqlar asosida shakllanadigan umumxalq mablag'i ekanligini tushunib yetadi. Shuningdek, mablag'larning ochiq tarzda taqsimlanishi korrupsiya holatlarining oldini olishda ham samarali vosita hisoblanadi.

Davlat tomonidan berilayotgan imtiyozli kreditlar, grantlar va subsidiyalar aholini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish, yangi biznes va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun muhim manba hisoblanadi. Ammo fuqarolarning aksariyati bu imkoniyatlar haqida yetarlicha ma'lumotga ega emas yoki ulardan qanday foydalanishni yaxshi bilmaydi. Shuning uchun mazkur yo'nalishda tushuntirish va maslahat ishlarini yanada kuchaytirish zarur.

Ta'lim sohasida ham moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish zarurati mavjud. Boshlang'ich sinflardan boshlab o'quv dasturlariga moliyaviy bilimlarni o'z ichiga olgan mavzularni kiritish lozim. Shunindak pedagog kadrlarning malakasini oshirish hamda darsliklarning sifatini yaxshilashga ham alohida e'tibor berilishi kerak.

Moliyaviy madaniyatni oshirishda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Maxsus tayyorlangan teleko'rsatuvlar, radio eshittirishlar, internet orqali olib boriladigan onlayn kurslar va blogerlar orqali targ'ibot ishlarini kengaytirish kerak. Yosh avlodning aynan raqamli platformalar orqali bilim olishga qiziqishi yuqoriligi sababli, ushbu imkoniyatlardan keng va samarali foydalanish zamon talabiga aylangan.

O'zbekiston tajribasida Markaziy bank huzuridagi "Bank-moliya akademiyasi" va boshqa muassasalar moliyaviy savodxonlikni kengaytirish bo'yicha onlayn darslar, master-klasslar, metodik qo'llanmalar ishlab chiqmoqda [Nazarov, 2022, 88]. Lekin ularning takomillashtirilishi, turli yosh va ijtimoiy toifalar uchun moslashtirilishi hamda hududlardagi qamrovini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, davlat moliyasining turli mexanizmlari aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishda juda muhim. Biroq bu jarayon yagona strategiya asosida, kompleks yondashuv va hamkorlikda bo'lishi lozim.

1-jadval

Respondentlarning yosh va daromad toifalariga ko'ra taqsimlanishi

Yosh guruhlari	O'rtacha daromad (1 mln so'mdan past)	O'rtacha daromad (1-3 mln so'm)	O'rtacha daromad (3 mln so'mdan yuqori)	Jami respondentlar
18-25 yosh	40	70	40	150
26-35 yosh	25	60	35	120
36-45 yosh	10	35	15	60
46+ yosh	15	30	25	70
Jami	90	195	115	400

Manba: stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistilka qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Ushbu jadvaldan ko'rish mumkinki, so'rovda qatnashgan 400 nafar respondentdan eng ko'p qismi (195 kishi) oyiga 1-3 mln so'm o'rtacha daromadga ega ekanini bildirgan. 36-45 yosh toifasida daromadi nisbatan yuqori bo'lganlar kamroq (15 kishi). Daromad darajasi moliyaviy savodxonlikka turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki yuqori daromadga ega respondentlar o'z mablag'larini investitsiya qilish, jamg'arma yaratishga ko'proq moyil bo'lishlari ehtimoldan holi emas [Abdullayev, 2018, 58].

2-jadval

Aholining davlat moliyasi haqida xabardorlik darajasi (foizlarda)

Bilim darajasi	18-25 yosh	26-35 yosh	36-45 yosh	46+ yosh
Juda yaxshi xabardor	8.0	10.0	9.5	10.2
Yetarli darajada xabardor	20.3	22.1	18.0	16.5
Qisman xabardor	45.7	42.4	40.5	38.3
Deyarli xabardor emas	26.0	25.5	32.0	35.0

Manba: Davronov, M. (2017). Aholining moliyaviy savodxonligi: muammolar va yechimlar. *Ijtimoiy fanlar*, 3(1), 29–33.

Mazkur jadval aholi orasida davlat moliyasidan xabardorlik hali ham past ekanligini ko'rsatadi. Qariyb 30 foizdan ortiq respondent "deyarli xabardor emas" deb javob bergan. Bu holat, ayniqsa, 46 yoshdan yuqori toifada yaqqol ko'rinadi [Davronov, 2017, 31].

3-jadval

Moliyaviy savodxonlikni bashorat qilish bo'yicha oddiy regressiya modeli

Mustaqil o'zgaruvchi	Beta koeffitsiyenti	p-qiymati
Davlat daromadlari (YAIM foizi)	0,27	0,03
Davlat xarajatlari (YAIM foizi)	0,21	0,07
Byudjet taqchilligi (YAIM foizi)	-0,08	0,42

Manba: Brown, L. (2021). Public revenues and financial behavior: An empirical approach. *Journal of Economic Literacy*, 14(3), 85–89.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, davlat daromadlari (YAIMga nisbatan) moliyaviy savodxonlik indeksi bilan ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlikka ega ($p = 0,03$). Bu shuni anglatadiki, hukumat daromadlarining o'sishi (odatda samarali soliq yig'imi va iqtisodiy faoliyat tufayli) aholi moliyaviy savodxonligi darajasining oshishiga ham mos ravishda xizmat qilishi mumkin [Brown, 2021, 87]. Biroq, davlat xarajatlari yoki byudjet taqchilligi esa 5 foizlik ishonch darajasida ahamiyatli ta'sir ko'rsatmadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari davlat moliyasi va aholi moliyaviy savodxonligi o'rtasida o'zaro mustahkam aloqa borligini ko'rsatadi. Nazariy asoslar shuni anglatadiki, davlat moliyasini oqilona boshqarish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlasa, moliyaviy savodxon fuqarolar to'lov intizomi, shaffoflik va resurslardan oqilona foydalanish orqali umumiy taraqqiyotga hissa qo'shadi. Empirik kuzatuvlardan ma'lum bo'ldiki, moliyaviy

ta'limga keng qamrovli e'tibor beradigan davlatlarda savodxonlik darajasi yuqori bo'lib, davlat daromadlarini samarali tashkil etadigan hukumatlar bilan ijobiy korrelyatsiya mavjud.

Biroq, ba'zi to'siqlar hamon mavjud: moliya haqida gapirishga oid madaniy cheklovlar, byudjet cheklovlari va siyosiy tarqoqlik e'tiborli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi siyosiy tavsiyalar beriladi:

1. **Kengaytirilgan moliyaviy ta'lim.** Maktab dasturlariga barcha bosqichlarda moliyaviy savodxonlik darslarini kiritish, shu bilan birga, ayniqsa zaif qatlamlar uchun kattalar ta'limini ham rivojlantirish.

2. **Siyosiy uyg'unlik.** Fiskal siyosat maqsadlari moliyaviy savodxonlik dasturlari bilan bog'liqlikda ishlab chiqilishi, shunda aholi davlat tashabbuslarini tushunishi va ularga javob qaytara olishi osonlashadi.

3. **Davlat-xususiy hamkorlik.** Davlat idoralari, ta'lim muassasalari, nodavlat tashkilotlar va xususiy moliya institutlarini jalb qilgan holda resurslardan samarali foydalanish va qamrovni kengaytirish.

4. **Monitoring va baholash.** Moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha dasturlar samaradorligini doimiy ravishda o'lchab borish va takomillashtirish.

Kelajakda, davlat moliya tuzilmalari va moliyaviy savodxonlik dasturlari vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishi hamda ularning uy xo'jaliklari jamg'armalari, sarmoya qarorlari va iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini o'rganish uchun uzun muddatli (longitudinal) tadqiqotlar o'tkazish mumkin. Shuningdek, ko'proq davlatlar jalb qilingan qiyosiy tahlillar turli madaniy va institutsional omillarning moliyaviy savodxonlikka hamda davlat moliyasining samaradorligiga qanday ta'sir qilishini kengroq ko'rsatib berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev, S. (2018). Davlat moliyasi va iqtisodiy taraqqiyot. Toshkent: Iqtisodiyot.
2. Akramov, I. (2016). Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajriba. Toshkent: Moliya.
3. Boltayev, B. (2021). Maktab ta'limida moliyaviy madaniyatni shakllantirishning dolzarbligi. Iqtisod va ta'lim, 2(4), 56–61.
4. Brown, L. (2021). Public revenues and financial behavior: An empirical approach. Journal of Economic Literacy, 14(3), 85–89.
5. Davronov, M. (2017). Aholining moliyaviy savodxonligi: muammolar va yechimlar. Ijtimoiy fanlar, 3(1), 29–33.
6. G'aniyev, R. (2021). Moliyaviy savodxonlikni oshirishda OAVning roli. Axborot texnologiyalari va ta'lim, 5(2), 17–22.
7. Johnson, S. (2019). Financial Literacy: Past, Present and Future. International Review of Economics, 37(2), 110–117.
8. Karimov, A. (2021). Aholining moliyaviy madaniyati va iqtisodiy xulq-atvori. Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 4(3), 44–47.
9. Nazarov, A. (2022). Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishda davlat dasturlari. Moliya va bank ishi, 1(2), 86–89.

10. Raximov, T. (2019). Moliyaviy ta'limning zamonaviy tendensiyalari. Moliyaviy tadqiqotlar jurnali, 6(1), 60–65.
11. Sadikov, D. (2019). Soliq siyosati va aholining iqtisodiy bilim darajasi. Soliq islohotlari sharhi, 2(1), 30–35.
12. Williams, J. (2020). The Economic Impact of National Financial Education Strategies. Finance and Society, 12(4), 198–203.
13. Yusupov, B. (2019). Davlat byudjeti ochiqligini ta'minlash mexanizmlari. Moliya va hisob, 7(3), 70–75.
14. Karimov, Sh. (2021). Moliyaviy savodxonlik va investitsiya loyihalari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
15. Tursunov, O. (2020). Davlat moliyasi va aholi savodxonligi: o'zaro bog'liqliklar. Ijtimoiy fanlar jurnali, (4), 78–87.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

